

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING PSIXIK RIVOJLANISHIDA
ROLLI O‘YINLARNING O’RNI**

*Qo‘qon universiteti ”Pedagogika va Psixologiya“ kafedrasи katta
o‘qituvchisi*

Usmonova Nargiza Raximjonovna

*Qo‘qon universiteti Psixologiya (amaliy psixologiya) 4 boshqich talabasi
Boboxonova Muslimaxon*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishida rolli o‘yinlarning tutgan o‘rni keng yoritilgan. Rolli o‘yinlar bola shaxsining emotsiyal, ijtimoiy va aqliy rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy psixologik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy-nazariy tahlillar va klassik pedagogik qarashlar asosida bolalarning o‘yin orqali olamni anglash, atrofdagi hayotiy hodisalarни aks ettirish, shaxsiy tajriba orttirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Xususan, rolli o‘yinlar bolalarda nutqiy faollik, ijodiy fikrlash, o‘zini erkin ifoda qilish, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o‘yinlar orqali axloqiy tushunchalar, ijtimoiy rollar va mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabatlar mustahkamlanadi. Maqola pedagog va psixologlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: rolli o‘yin, maktabgacha ta’lim, bola psixologiyasi, emotsiyal rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, ijodkorlik, shaxsiy shakllanish, muloqot madaniyati.

Har qanday jamiyatning kelajagi sog‘lom fikrli, keng dunyoqarashli, ilmga chanqoq kreativ fikrlaydigan intellektual salohiyati yuksak taraqqiy etgan yoshlarga har tomonlama bog‘liqdir. Barkamol sog‘lom fikrli avlodgina Vatan va yurt oldidagi umumjamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan mashqlarni harakatga qodir bo‘lib, o‘z xalqining tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Shu nuqtayi nazardan har bir insonning kamol topishida unga berilayotgan ta’limtarbiyaning o‘rni beqiyos sanaladi. Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo‘lgan yoshlar uchun ko‘plab yangi-yangi g‘oyalar ustida ishslash va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

kreativlik bilan yondashish zamon talabi sanaladi. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni kuzatish, intellektual dasturiy ta'minot bilan birga va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'ymoqda. Ta'limgartarbiyaning birinchi poydevori albatta ta'lim jarayonining dastlabki bo'g'ini maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'yiladi. Undan so'ng albatta umumiyl o'rta ta'lim maktab davri boshlanadi.

Shularni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2019-yildagi O'RQ-595-son qonuniga binoan Bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiyl o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzlusiz ta'lim turi;¹

Ba'zi hollarda esa o'yin mehnat qilish istagi orqali yuzaga keladi. Ayrim hollarda esa o'z o'yinida bola oldin kattalar mehnatiga taqlid qiladi. Keyinchalik ularning mehnatida qatnashadi, o'yin yosh avlodni menatga tayyorlaydi. Bolalar o'yinini bunday tushunish birinchi marta K.D.Ushinskiy tomonidan ta'riflab berilgan edi. U o'z asarlarida bolalar o'yinining mazmuni ularning hayotda olgan ta'ssurotlari bilan belgilab, ular shaxsini shakllantirishiga ta'sir etadi deb yozadi. Bu fikrni P.F.Lesgaft ham tasdiqlab, bolalar o'z o'yinlarida tevarak atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faolyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.²

"O'yin - o'sib borayotgan bolaning tanasi uchun ehtiyoj. O'yinda bolaning jismoniy kuchi rivojlanadi, qo'llari mustahkamlanadi, tanasi yanada moslashuvchan bo'ladi, aniqrog'i ko'z, aql, zukkolik, tashabbuskorlik rivojlanadi ", deb yozgan edi N.K. Krupskaya.³

YA.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o'yini ko'p asriik tarixga ega- deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - insonning

¹ <https://lex.uz/docs/-4646908>

²https://www.researchgate.net/publication/379824565_ROLLI_O'YINLAR_MAKTABGACHA_YOSHDAGI_BOLALARINI_YETAKCHI_FAOLIYATI_SIFATIDA

³ <https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/download/53239/33789/58917>

www.tadqiqotlar.uz

20-to'plam 3-son Iyun 2025

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan». YAn Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha o'yin - bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyidi, nutq rivojianadi. Bola o'vin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. YA.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg un rivojianish sharti sifatida qarar ekan. kattalarga bolalar o'yinlariga e tiborli munosabatda bo'Mishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni masalahat bergen edi.

P.F.Lestgaft bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan lasurotlar'mi aks eltiradilar. deydi. Sunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

A.S.Makarenkoning fikricha, bolalarning o'yin faoliyatlari ularni jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishlari uchun birdan-bir vositadir. Katta odamlar uchun mehnat faoliyati qanchalik ahamiyatli bo'lsa, bolalar uchun o'yin shunchalik ahamiyatga ega. «Yaxshi o'yin faoliyati, – deydi A.S. Makarenko, – yaxshi bajarilayotgan mehnatga o'xshaydi. Mana shuning uchun bolalar o'yin faoliyatida o'zlarini qanday namoyon etsalar, katta bo'lganlaridan so'ng mehnat faoliyatlarida ham ko'p jihatdan o'zlarini shunday namoyon etadilar». A.S.Makarenkoning bu fikri bolalarning o'yin faoliyatlari orqali ularda yuksak insoniy sifatlarni tarbiyalash imkoniyati naqadar katta ekanligiga ahamiyat bilan qarashni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsn ni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muassasadir. O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanganligimi belgilab beradi. O'yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Jamiyatning ma'naviy takomillashuvi unda amalga oshiriladigan ta'lim-

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog'liqdir. Shu boisdan ham ta'limgangi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichmabosqich ta'lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keladi. Haqiqatdan ham o'yin, har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi hayotni va kishilar o'tasidagi turli munosabatlami har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yindir. Bu yoshdagi bolalarning o'yinlarini uchga bo'lish mumkin:

- 1)predmetli o'yinlar(15-20 minut o'ynaladi);
- 2)syujetli-rolli o'yinlar (30-60 minut o'ynaladi);
- 3)qoidali o'yinlar (1soatdan -2 kungacha davom etishi mumkin).

Bolalarning o'yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi. Bolalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko'pincha umumiylig harakteriga ega bo'lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turlituman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, shifokorning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarnigina emas, balki umuman shofyorlarning, shifokorlarning, tarbiyachilarining hamda uchuvchilarining xattiharakatlarini aks ettiradi.

Bu yoshdagi bolalar o'z vaqtining ko'p qismini o'yin bilan o'tkazadi, ayniqsa 3 yoshdan 6-7 yoshgacha o'yinlar ahamiyatli taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi: predmetliboshqaruv va ramziy o'yinlardan tortib to qoidali syujetli-rolli o'yinlargacha. Bu yosh davrida barcha o'yin turlarini ko'rish mumkin. Bu davrda bolalarning quyidagi asosiy faoliyat turlari izchillikda takomillashib boradi: predmetlar bilan boshqarish o'yini, konstruktiv tipdagi individual predmetli o'yin, jamoaviy syujetli-rolli o'yinlar, individual va guruhiy ijod, o'yin-musobaqa, o'yin-muloqot, uy mehnati. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar asosan predmetlar, turli xil o'yinchoqlar bilan yolg'iz o'zlari o'ynaydilar. O'zlarining predmetli va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

konstruktorli o‘yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur jarayonlarini, shuningdek o‘z harakat qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatları doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba’zan kichik guruh bolalari ham) o‘zlarining o‘yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar xolos. Masalan, (oyisini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabilarni). O‘rta yoki katta bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yinlarida esa bunday obrazlar umumiylit harakteriga ega bo‘la boshlaydi. Sekin-asta o‘rta maktabgacha davrga borib o‘yin jamoaviy bo‘lib boradi va unga ko‘proq bolalar qo‘sila boshlaydi. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa o‘yinlari davomida kuzatish qulaydir. O‘z o‘yinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatinigina emas, balki ko‘proq ularning o‘zaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga taqlid etadilar.

Rolli o‘yin - bu erta yoshdagi bolalarning rivojlanishiga yordam beradigan muhim faoliyat. Bu ularga xavfsiz va boshqariladigan muhitda atrofdagi dunyo bilan shug‘ullanish va bilish imkoniyatini beradi .

Shuni ta’kidlash kerakki, sensorimotor harakatlar asta-sekin va ketma-ket amalga oshiriladi, vakillik ramziy fikr tezroq sodir bo‘lishi mumkin, chunki u o‘tmish, hozirgi va kelajakdagi voqealarni qamrab oladi. Shuning uchun sensorimotor intellekt aniq va tezkor harakatlarga yo’naltirilgan bo’lsa, boshqa tomonidan, ramziy fikr ob’ektlar tomonidan taqdim etilgan bilimlar, harakatlar va oqibatlarga va ularni umumlashtirishga qaratilgan.

Xulosa

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, rolli o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishida beqiyos o‘rin tutadi. Bola o‘yin orqali nafaqat jismoniy va psixologik jihatdan rivojlanadi, balki atrof-muhitga, insonlarga va jamiyatga bo‘lgan munosabatni shakllantiradi. Rolli o‘yinlar bolaning xayol dunyosini boyitadi, ijtimoiy rollarni egallash, nutqiy faoliyatni rivojlantirish, o‘zini ifoda qilish va tengdoshlar bilan hamkorlikda harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, rolli o‘yinlar orqali bola mehnatga, axloqiy qadriyatlarga,

hamda kasb-hunarlar haqida dastlabki tushunchalarni shakllantiradi. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, o‘yin faoliyatining tashkil etilishi bola shaxsini shakllantirishda va uni kelajak hayotga tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim muassasalarida rolli o‘yinlarga metodik asoslangan tarzda yondashish dolzarb masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET

MANBAALARI

1. Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Yangi O‘zbekistonning istedodli yoshlari”; ilmiy ishlar to‘plami O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta talim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi istedodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash Ulug’bek jamg’armaasi. Tuzuvchi va nashr uchun masullar O Salimov, A Toshqulov, M Bektemirov, Q uronboev, N Xalilov- ta’lim nashriyoti,, 2021. 344-b. ISBN 978-9943-368-05-7
2. Abduqahhorova, N. O‘yin orqali axloqiy tushunchalarni shakllantirish. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2017. – 156 bet.
3. Do‘stmuhamedova SH.A., Nishonova Z.T. va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013 – 343 b.
4. Maktabgacha yoshdagagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / S.X. Jalilova, S.M. Aripova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. – Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2017. – 496 b.
5. Markova, T.A. Rol oyinlarının ijtimoiylashtirishdagi o‘rni. – Moskva: Nauka, 1998. – 210 bet.
6. Jo‘raeva, Z.A. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2020. – 180 bet

Internet tarmog‘i bo‘yicha veb-saytlar ro‘yxati:

1. <https://lex.uz/docs/-4646908>
2. <https://inacademy.uz/index.php/zdpp/article/download/53239/33789/58917>

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

3. <https://www.interscience.uz/index.php/home/article/download/2769/2472/7790>
4. <https://www.eyworks.co.uk/blog/the-importance-of-role-play-in-the-early-years/#:~:text=By%20participating%20in%20role%2Dplay,their%20social%20and%20emotional%20growth>